

IBRAT BO'LSIN

Maktabimizda «Odam savdosiga qarshimiz» shiori ostida o'tkazilgan tadbirlar ko'pchilikda katta taassurot qoldirmoqda. Mo'may pul topish ilinjida chet ellarga noqonuniy yo'llar bilan chiqib, abgor holga tushgan hamyurtlarimizning mehnatlari evaziga haq ololmay sargardon bo'lib yurganlari, eng achinarlisi, ular orasida xotin-qizlar ham borligi kishini tashvishga soladi.

Halol mehnat qilib erishgan yutuqlari tufayli nafaqat yurtimizda, balki xorijda ham e'tirof etilayotgan insonlar nahotki ularga ibrat bo'lmasa?

*Zebunniso XURSANDOVA,
Surxondaryo viloyati, Jarqo'rg'on tumanidagi
2-umumta'lim maktabi o'quvchisi*

BIRGALIKDA O'QIYMIZ

Qadrli «Tong yulduzi»!

Men sening ashaddiy muxlisingman. Har bir soningni intizorlik bilan kutaman. O'zimga yoqqan joylarini sinfdoshlarimga ham o'qib beraman. Yoz oylarida ko'plab badiiy kitoblarni o'qib chiqdim. Ular orasida jahon klassiklarining asarlari ham bor. Shu bois ularga o'zgacha mehrim tushdi. Endi sening sahifalaringda ham jahon adabiyoti namunalari bilan tanishib borsak, nur ustiga a'lo nur bo'lar edi.

*Farida FAYZULLAYEVA,
Namangan viloyati, Chust shahridagi
2-litsey o'quvchisi*

QUVONCHIM CHEKSIZ

«Jonajon o'lkam tabiati» deb nomlangan insholar tanlovida tumanimiz o'quvchilari qatori men ham faol ishtirok etdim va «Faxriy yorliq» bilan taqdirlandim.

Bundan juda mamnunman.
*Barchinoy TURGUNOVA,
Jizzax viloyati, Forish
tumanidagi 59-maktabning
8-«A» sinf o'quvchisi*

www.tongyulduzi.uz

TONG yulduzi

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN – 2010-6092

2010-yil
8-noyabr
N:45
(66794)



BIRINCHI CHORAK TUGAB,
KUZGI TA'TILGA HAM CHIQIB
OLDIK. ENDI MIRIQIB
GAZETA O'QIYMIZ.

Nashr indeksi: 169

GAZETAGA
MEHRIM OSHDI

– Sizlardan juda minnatdorman, – dedi u iltifotli ohangda. – Ilgari gazeta-jurnal, kitob deyishsa, ensam qotardi. Bolalarimga ham birona gazet-jurnal olib bergan emasman. Lekin bir kuni o'g'lim «Tong yulduzi» gazetasini ko'tarib keldi. «Dono bobo o'gitlari» bor ekan. O'qib berdi. Kitob haqida bama'ni gaplar yozilgan ekan. Men-ku g'aflatda qolib, kitob o'qimay, hayotni tanimadim. Qo'shning bolalari bari o'qimishli: biri – muhandis, biri – shifokor, yana biri – fermer; ota-

Farg'ona vodiysida ijodiy safarda bo'lganimda, qirq yoshlardagi dehqon yigit bilan suhbatlashib qoldim. U men bilan xuddi eski qadrdonlardek samimiy gaplashdi. Avvaliga uni eski suhbatdoshlarimdan biri bo'lsa kerak, deb o'yladim, chunki odam ko'p joylarda bo'lib, ko'p kishilar bilan suhbatlashadi, bil'aks, ularning hammasini ham eslab qolmaysiz.

onalarini qo'llarida ko'tarib yurishadi. Nega mening bolalarim shular singari o'qimishli bo'lmasliklari kerak, degan xayolga bordim. Xullas, o'g'linga gazet, kitob o'qi, deb nasihat qildim. U shu gazetani o'qiy boshlab, kundan-kunga o'zgarib bordi, fanlardan a'lo baholar olib, muallimlaridan maqtov ham eshitdi. Bir kuni undan kim bo'lmoqchisan, deb so'rasam, «Muxbir bo'laman», dedi. Xursand bo'ldim. Mening bolalarim ham sizlarga o'xshab el xizmatida, hurmatida yursa, deya orzu qilaman.

Albatta, «Yaxshi niyat – yarim davlat» degan maqolni ko'p takrorlaymiz. Suhbatdoshimizga ham shu fikrni bildirdik. Ana shu suhbat bahona o'ylanib qoldim: ozod va hur mamlakatimizda bolalarga e'tibor katta, ular uchun barcha shart-sharoitlar muhayyo qilingan, yurtimizning kelajagi va o'z ertasini o'ylagan ota-onalar farzandlarini el-yurt xizmatiga yaraydigan komil insonlar qilib tarbiyalash uchun yelib-yugurishayapti, ularga yaxshi tarbiya berish payida bo'lmoqdalar. Ammo ba'zi kimsalar topgan pullarini

keraksiz narsalarga sarflab yuboradilar-u, loaqal bir yillik obuna narxi to'rt yarim ming so'm turadigan gazetaga bolalarini obuna qilishga og'ri-nadilar. Bir otaning: «Tan olaman, ichkilik uchun qanchadan-qancha pullarimni sovurib yuboraman-u, farzandlarim uchun bitta kitob xarid qilishni xayolimga ham keltirmayman», degan gaplari kishini ranjitadi. Shu mablag'ni to'g'ri sarflab, qizchalariga qo'g'irchoq, o'g'illariga ertak kitob olib bergan ota ertaga rohatini o'zi ko'radi-ku! Yoki to'rt dona sigaret puliga bitta ertak kitob sotib olish mumkinligini o'ylasak, qaysi birisi afzalroqligi haqida ko'p



orqali fikr-mulohazalar bildiriladi, maqolalar, lavhalar, suratlar yuboriladi, xullas, qizg'in hayot davom etmoqda. Fikrlarning mushtarakligi insonga quvvat va ilhom hadya etadi. Farzandlar kamoli barchamizning baxtimiz. Aziz ota-ona, qadrlar mu-rabbiylar! Bu Sizing, farzandlaringizning

bosh qotirish shart emas, faqat ba'zilarda ana shuni o'ylab ko'rishga ishtiyoq, xohish bo'lmaydi, xolos. «Keyingi pushaymon o'zingga dushman», deyishadi. Ana o'shanga-gacha yetib bormaslik kerak, deb o'ylayman.

Har kuni tahririyatimizga farzandlarini yetaklagan ota-onalar kelib turishadi, respublikamizning turli burchaklaridagi, maktablar, litsey va kollejlardan xat-xabarlar yetib keladi, qo'n-g'iroqlar bo'ladi, internet

nashri. «Obuna – 2011» mavsumiga beparvo qaramang! Biz siz uchun, sizlar uchun mehnat qilamiz. Yangi yilda ham eng yangi, eng qiziqarli hikoya, qissa, she'rlar-u turli mavzulardagi maqolalarni e'tiboringizga havola etamiz. Yangi-yangi ko'rik-tanlovlarimizda aynan sizlarning farzandlaringiz g'oliblar sifatida turli esdalik sovg'alariga sazovor bo'lishlarini istab qolamiz.

O'z muhbirimiz
Surat muallifi ZUBAYDA

Ajdodlar merosini o'rganimiz



Aysh, Navoiy, necha dilkashdurur,
Lek adab birla hayo xushdurur.

Hazrat Navoiy bobongiz hayotda odob-axloqni birinchi o'rinda deb bilganlar. Qarangki, bu misralarda ham shu jihatlarga e'tibor qaratilgan: aysh-ishrat, taom yemoq har qancha yoqimli bo'lmasin, baribir, undan ko'ra, odob va hayo yaxshiroqdir, deydi u zot. Siz ham shunga amal qiling, hayot sizga faqat go'zallik baxsh etadi.

BIZNING ROZA
OPAMIZ

Poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi 203-umumta'lim maktabining eng namunali bilim maskanlaridan biri ekanligi, o'quvchilari iqtidorli, o'qituvchilarining esa bilimli, jonkuyar, talabchanligi haqida ko'p eshitardik. Uning bunday yutuqlarga erishishida maktab direktori Ozoda Igamberdiyevaning xizmatlarini alohida e'tirof etish lozim. O'z kasbining fidoyisi bo'lgan ustozlardan biri Roza Turmuhammedova mazkur yilda «Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi» tanlovining respublika bosqichida rus tili fani bo'yicha birinchi o'rinni qo'lga kiritdi.



–26 yillik ish faoliyatimda qanchadan-qancha o'quvchilarga o'z bilimim va tajribamni ulashganimdan behad mamnunman, – deydilar ustoz bosib o'tgan hayot yo'llariga bir nazar tashlab. – Bunday yuksak nomga sazovor bo'lishimda esa maktabimiz rahbari hamda ilmiy mudirimiz Malika opalarning xizmatlari beqiyos. Ular, siz bu nomga loyiqsiz, deya ishonch bildirishdi. Men esa uni oqlash uchun astoydil intildim.

Maktabimiz o'quvchilari, bitiruvchilarimiz orasida tirishqoq, bilimga chanqoq o'quvchilar juda ko'p. Jumladan, ingliz tili bo'yicha shahar olimpiadasida muvaffaqiyatli qatnashgan Alisher Ergashev, bugungi kunda axborot texnologiyalari kollejida tahsil olayotgan Rushana Normatova, she'riyatga, adabiyotga mehri bo'lakcha Dilfuza Islomova, kompyuter savodxonligi, informatika fani bo'yicha o'z tengqurlariga ham ustozlik qilayotgan Olimbek Turg'unovni maktabimiz faxri desak, mubolag'a bo'lmaydi. O'quvchilarim biror yutuqqa erishishsa, xuddi o'z farzandlarim yutug'idek dilim yayrab ketadi...

O'z navbatida shogirdlari ham ustozning muvaffaqiyatidan behad

quvonib, o'zimizning Roza opamiz, deya quvonchiga sherik bo'lishdi.

Roza opa tajribali ustoz bo'lish bilan birga, 3 nafar farzandning mehribon onajonisi hamdir. Ularni ziyoli, el-yurt koriga yaraydigan komil insonlar qilib tarbiyaladilar.

Roza opa mehnat qilayotgan mazkur bilim maskanida o'quv dasturlarini optimallashtirish, bolalarga rus va ingliz tillarini chuqur o'rgatish borasida talaygina ibratli ishlar amalga oshirilyapti.

Maktab rahbari Ozoda opaning jonkuyarligi tufayli atrof-muhit tozaligiga ham katta e'tibor qaratilyapti. Ayni kunlarda maktabda obuna ishlari qizg'in davom etyapti. Quvonarlisi, bu ishga ham maktab rahbarining o'zlari bosh-qosh ekan. O'quvchilar ochiq dars mashg'ulotlarida «Tong yulduzi» sahifalarida yoritilayotgan maqola, lavha, she'r va hikoyalarni o'qib, muhokama qilishar, boshqotirmalari ustida birgalikda bosh qotirisharkan. Shuning uchun ham maktabning aksariyat o'quvchilari aynan shu gazetaga obuna bo'lishga qaror qilishibdi.

Xo'sh, siz-chi, aziz o'quvchilar, o'z gazetangizga obuna bo'lishga ulgurdingizmi?

Manzura UBAYDULLAYEVA



QARG'A EKKAN YONG'OQ

Qarg'a yong'oqni topganimda, 4-sinfda o'qir edim. U paytlar dam olish kunlarimiz hovlimizning orqa tomonidagi bog'da o'tardi. Bir kuni otam bog'ni tozalab, yerini ag'darish kerakligini aytdilar. Nonushtadan so'ng ishini boshladik. Otam daraxtlarga shakl berishga kirishdilar. Akam bilan men xaxshaklarni yig'ishtirishga tushdik. Ariq bo'yidagi qov-jiragan o'tlarni tozalayotgan paytimda, ko'zim yangi chiqqan niholga tushdi.

Bog'dagi barcha daraxtlarni akam bilan teng bo'lishib olgandik. Endi mening daraxtim akamnikidan ko'p bo'ladi. Quvonganimdan akamni chaqirdim.

— Aka, qarang, yong'oq chiqibdi, — dedim quvonchim ichimga sig'may.

Akam gapimga e'tibor ham qilmadi.

— Yulib tashla, qarg'a ekan bo'lsa kerak. Naviniyam tayini yo'q.

Hayron bo'lib otamga qaragan edim, u kishiyam akamning gapini ma'qulladilar.

— O'sib ketisa, boshqa daraxtlarni ezib qo'yadi. Yarasam, akam ko'chatni yulib tashlamoqchi. Yugurib borib qo'llariga yopishdim.

— Qolaqolsin. Balki navi yaxshidir?!

Akam biroz o'ylanib turdida, nari ketdi. Men esa niholim atrofini begona o'tlardan tozalab, ostini ketmoncham bilan yumshatib qo'ydim. Yong'oqcha tez o'sa boshladi. Eng qizig'i, men yong'og'im bilan gaplashardim. Buni menga buvim o'rgatganlar. Agar ko'chatni yaxshi parva-

rish qilib, tanasini silab, erkalatib tursangiz, u ham sizning aytganingizni qilarkan. Men ham har gal tagini yumshatib, suv quyganimda, «Yong'oqjon, tezroq o'sgin, mag'zing shirin bo'lsin», deb qo'yaman. Yaproqlari mayin silkinib, u gaplarimga kirgandek bo'ladi. Oradan yillar o'tib, yong'og'im nishona qildi. Chayir shoxlaridagi uch-to'rtta mevasini har ko'rganda quvonaman. Ishqilib, shamolda to'kilmasin-da, deya xavotirdaman. Bir kuni ertalab nonushta mahali otam dasturxon-ga ikki dona yong'oq qo'y-dilar.

— Qarg'a ekan yong'oq pishibdi. Bunaqa navini yaqin atrofda ko'rmaganman. Xuddi yer yong'oqqa o'xshaydi. Barmog'ing bilan salgina siqsang, bas, osongina chaqiladi.

Bu gapdan onam ham xursand bo'lib ketdilar.

— O'zimni qaysar bolam, yaxshiyam uni yulib tashlashga qo'ymagan ekansan, — dedilar yelkamni silab...

Hozir yong'og'im rosa kuchga kirgan, bo'yi uncha baland emas. Doim shig'illab meva beradi. Ko'pchilik tanishlarimiz har yili yong'og'imizdan olib, uylariga ekishadi. Lekin birortasirikida hali nihol o'sib chiqqani yo'q. Sababini o'zim ham bilmayman.

Yusuf ABDULLAYEV

MILLAT IFTIXORI

O'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilgan kun munosabati bilan yurtimizning turli maskanlarida bir qator tadbirlar uyushtirildi. Ana shunday tadbirlardan biri poytaxtimizning Hamza tumanidagi 206-maktabda ham bo'lib o'tdi. 2-«G» sinf o'quvchilari tomonidan tayyorlangan bayram tadbiridagi badiiy chiqishlar, sahna ko'rinishlari yig'ilganlarda katta taassurot qoldirdi. Ayniqsa, Mehroj Hamroyev, Setora Raimova, Akbar Tashanov, Javlon Qurbonov, Setora Ilhomova singari o'quvchilarning o'qigan she'rlari, hikmatlari va buyuk mutafakkir Alisher Navoiyga bag'ishlangan sahna ko'rinishi barchaga manzur bo'ldi.

Gulnoza
MO'MINOVA,
jurnalist



TILIMIZ JOZIBASI

Litseyimizda barcha bayramlarni ko'tarinki ruhda o'tkazish yaxshi an'anaga aylangan. Shuningdek, til bayramiga bag'ishlangan tadbir ham keng nishonlandi. Erta tongdan boshida do'ppi, egnida milliy libos kiygan litseyimiz o'quvchilari ustoz va mehmonlarni samimiy qutladilar. Ma'naviy va ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Nodira opa To'yqulova, ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari Dilfuza Shodiyeva, Adiba Nabiyeva tomonidan tashkillashtirilgan bayramning ikkinchi qismi yanada jozibali bo'ldi.

206-guruh qizlari sahnalashtirgan «Qizlar bazmi», rus tilida ta'lim oluvchi o'quvchilarning Alisher Navoiy g'azallarini ifodali o'qib berishlari ko'pchilikka manzur bo'ldi. So'z ustasi Sherali Xojiyev, milliy va estrada yo'nalisida ijod qilib kelayotgan Hilola Hamidovaning chiqishlari bayramga o'zgacha shukuh bag'ishladi.

Tadbir tufayli ona tilimiz jozibasi, uning qudratini yanada chuqurroq angladik.

Iroda SOBIROVA,
Sobir Rahimov akademik litseyning
xorijiy filologiya yo'nalishi
talabasi

Boshi o'tgan sonlarda

Taxmis bog'lagan muallif kim bo'lsa ham oxirati obod bo'lsin, biz uchun muhimi — muxammas namunasi bilan tanishish. Shu maqsadda mazkur undan bir bandni olaylik:

Go-h Maj-nun¹ el-ga gah men¹ so-g¹ i-la teng¹

(b) o'l-mi-sham,

Has-ra-ting-din¹ lo-la yang-lig¹ do-g¹ i-la teng¹

(b) o'l-mi-sham,

Kim, xa-zon fas¹ li-da-gi yap¹ ro-g¹ i-la teng¹

(b) o'l-mi-sham,

Yo-r ko'-yi¹ ich-ra-kim tup¹ rog¹ i-la teng¹

(b) o'l-mi-sham,

Ish-q sav-dolsi bu yang-lig¹ po-y mol etl mish me-ni.

Taxmisga asos bo'lgan g'azal baytining har misrasida ikkitadan o'ta cho'ziq hijo bor. Muallif taxmis bog'lar ekan, vaznga amal qilgan — hijolar soni 15 tadan. Xususan, birinchi misrada «goh» so'zini avval o'ta cho'ziq hijo, ikkinchi o'rinda esa «gah» tarzida oddiy cho'ziq hijo sifatida qo'llagan. Demak, u aruz vaznini yaxshi bilgan.

Shu bilan birga, dastlabki ikki misrada Navoiy she'riyatiga xos bo'lmagan jihatlar ko'zga tashlanadi: birinchi misrada Majnun bilan sog' o'zaro taqqoslanganki, tazod san'atining bu shakli u qadar muqobil emas — lirik qahramonni Majnuniga tenglash joiz o'xshatish, ammo «sog' bilan teng bo'ldim»

Abdulla A'ZAMOV

ARUZ BAHSI

deyish biroz g'alat. Ikkinchi misrada esa, lola dog' bilan teng bo'lib qolmoqda. Lekin qo'shiqni tinglaganda, bu kamchiliklar sezilmaydi. Qolaversa, uchinchi misradagi noyob poetik kashfiyot ularni «yuvib» ketadi:

**KIM, XAZON FASLIDAGI YAPROG'
ILA TENG (B) O'LMISHAM**

Bu misra uchun Navoiy taxmis muallifiga «ofarin» degan bo'larmidi? Zero, bu misrani she'riyatning eng yuksak namunalaridan biri sifatida tan olish lozim: «Gul'uzorim» qo'shig'i shu misraga yetganda, tinglovchining ko'z oldida kinodagiday yorqin obraz — kuz havosi, sarg'ayib izg'irinda titrayotgan, uzilib shamol ixtiyorida ucha boshlagan, holsiz yerga qo'ngan yaproq gavdalanadi. Keyingi misra bu kartinani davom ettiradi: lirik qahramon «yor ko'yida tuproq bilan teng bo'lar ekan», bu shunchaki emas, balki «xazon faslidagi yaproq» taqdiri kabi sodir etilgani tasvirlanadi. Holbuki, Navoiy baytida yaproq obrazi yo'q!

Xullas, birgina misra tufayli muhabbat va hijron haqidagi baytning mavzu doirasi nihoyatda kengayadi — taqdir quyunida qolgan inson ruhiy holatining badiiy ifodasiga aylanadi. G'azalni muxammasgacha mana shu yo'sinda to'ldirish — taxmis san'atining namunasi, qolaversa, aruzning qudratiga yana bir dalildir.

— G'azal mumtoz adabiyot talablariga muvofiq bo'lishi, xususan, vazni ham, qofiyasi ham aruz me'yorlariga javob berishi kerak, deya ta'kidlamog'dasiz. Holbuki, «chuchvara yeyishdan maqsad xamir emas, go'sht qaynash» degan gap bor. She'rdan ma'no va maqsad — qofiya va vazn emas, mazmun va zavq-ku?!

— Badiiy asarda shakl va mazmun bir-birini istisno qilsa yoki biri ikkinchisiga xalaqit bersa, bu ijodkor mahoratining yetishmasligi, hatto malakasi-ning pastligidan alomatdir.

— Kechirasiz, na vazn, na qofiyaga qat'iy rioya qilgan, ammo ijodi adabiyotning oltin xazinasidan o'rin olgan shoirlar ko'p.

— To'g'ri, lekin ular boshqa vaznlarda ijod qilganlar, g'azalnavis emaslar.

— Erkin Vohidovning «Yoshlik devoni»dagi g'azallar-chi?

(Davomi bor)

Tahririyatimizga o'quvchilarimizdan kuniga o'nlab maktublar keladi. Ular maktab hayoti, to'garaklar faoliyati, jonkuyar ustozlari-yu iqtidorli tengdoshlari haqida to'lib-toshib yozishadi. Ayniqsa, Samarqand, Namangan, Andijon, Farg'ona, Buxoro, Qashqadaryo viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida yashovchi tengdoshlaringizning faolligi bizni behad quvontiradi.

Biroq, poytaxtimizdagi maktab o'quvchilari ulardek faol emas. Aslida, ularning qo'lga kiritayotgan yutuqlari ham respublikadagi tengdoshlarinikidan qolishmaydi. Shunday ekan, nima uchun poytaxtlik o'quvchilar o'z tengdoshlari bilan o'rtoqlashmaydilar. Bu savolga aniqlik kiritish maqsadida tuman xalq ta'limi bo'limlariga yo'l oldik.

RAQOBATDA KIM KUCHLI?

Anvar NABIYEV,
Mirzo Ulug'bek
tuman xalq ta'limi
bo'limi mudiri:

Tumanimizda 32 ta umumta'lim maktablari, 1 ta yordamchi maktab, 2 ta maxsus maktab-internati, 59 ta maktabgacha ta'lim muassasasi, 4 ta musiqa maktabi, 3 ta BO'SM, 2 ta sport majmuasi hamda 1 ta bolalar ijodiyot markazi faoliyat yuritadi.

O'quvchilik yillarim shirin xotiralarga boy bo'lgan. Ayniqsa, gazeta va jurnallarning yosh muxbiri bo'lib, maktab hayotiga oid maqolalar, xabarlar yozganim sira yodimdan chiqmaydi. Bugun ham bolalar nashrlarini kuzatib boraman. Menimcha, gazeta sahifalarida maktab hayoti yanada kengroq yoritilishi kerak. O'quvchi o'z ustozlari, maktabdoshi yoki qishloqdoshi haqidagi maqolani qunt bilan o'qiydi va, albatta, shu nashrga qiziqishi ortib, navbatdagi sonni kutadi.

Tumanimizda maqto'vga loyiq maktablar, maktabgacha ta'lim muassasalari oz emas. Gazeta bilan hamkorlik rejasiga esa maktab partasidagi iqtidorli, izlanuvchan, bilimdon, hunarmand o'quvchilarni izlab topishga xizmat qiladi, deb o'ylayman.

Ommaviy axborot vositalari orasida ijodiy raqobat avj olgan bir paytda, o'quvchilar o'z gazeta va jurnallarini topib, bilib o'qishlari kerak. Bu borada siz-u bizning faolligimiz katta ahamiyatga ega.

BO'SH KELMAYMIZ,



deydi Toshkent shahar, Hamza tuman xalq ta'limi bo'limi mudiri vazifasini bajaruvchi Fotima BEKMUROTOVA.

o'quvchining har biri kitobga mehr qo'yishi, gazeta-jurnalga oshno bo'lishini juda-juda xohlayman. Bu maqsadga erishish uchun esa atrofimdagi talabchan, bilimdon ustozlar bilan birgalikda harakat qilishimiz lozim.

Tumanimizda 29 ta maktab, 1 ta yordamchi maktab, 1 ta internat, 1 ta «Mehribonlik uyi», 1 ta futbol internati, 1 ta ko'zi ojizlar maktabi, 2 ta maktabdan tashqari muassasa, 5 ta musiqa maktabi va 2 ta sport maktablari mavjud.

Shuningdek, 41 ta maktabgacha ta'lim muassasalari bo'lib, bolajonlarning hozirdanoq bilimdon, iqtidorli bo'lib voyaga yetishlariga alohida e'tibor qaratganmiz.

203-bog'chamiz Toshkent shahrida o'tkazilgan ko'rik-tanlovda «Yilning eng obod bog'chasi» nominatsiyasi g'olibi bo'ldi. Bizning bolalarimiz hamisha g'olib bo'lishga intilishadi. Buning uchun barcha imkoniyatlar yetarli.

– Men kitob o'qigan bolani yaxshi ko'raman. Bu gapimni bolajonlarga takror-takror aytishdan charchamayman. Bolaligimda «Tong yulduzi», «Nurli jol» gazetalarini mening eng yaqin do'stlarim bo'lgan. O'zimni qiziq-tirgan barcha savollarga ulardan javob olganman. Bugun ham bu gazetalarining har bir soni bilan tanishib borishga harakat qilaman.

Mazkur o'quv yilidan boshlab «Tong yulduzi» bilan hamkorligimiz yanada mustahkamlanadi. Gazeta bilan hamkorlikda ilg'or maktablar tajribasini ommalashtirish, sportchi, xitirochi bolalarni kashf etish, to'garaklar faoliyatini keng yoritib borishni rejalashtirdik. Bu esa gazetxonlarning ko'payishiga asos bo'ladi.

Ayni damda tumanimizdagi 29150 nafar

Farzandlarimizga bilim olishlari, kasb-hunar cho'qqilarini egallashlari uchun qanot berish biz kattalarning vazifasidir. Bu borada poytaxtdagi jahon andozalariga mos shart-sharoitlarga ega Respublika olimpiya zavcralari tennis maktabi faoliyati tahsinga sazovor. Bugungi kunda ushbu dargohda yuzlab iqtidorli yosh tennischilar tahsil olmoqdalar. Ular o'z yutuqlari bilan dunyo kezmogdalar. Ushbu sahifamizda maktabning umidli o'quvchilari bilan tanishasiz.

XATOLARIMNI TO'G'RILAYAPMAN, deydi Dono VALIXONOVA

– Dadam Odilxon aka olti yoshimdan karate mashg'ulotlariga olib borganlarida, juda xursand bo'lganman. Yetti yil mobaynida tengdoshlarim orasida karate bo'yicha yaxshi natijalarga erishdim. Murabbiylarim e'tirofiga ham sazovor bo'lganman.

Katta tennisga kirib kelishim esa o'tgan yildan boshlandi. Bir yarim yil katta tennis bilan muntazam shug'ullanib, sportning jozibador bu turidan ajralmay qoldim.

Qiziqishim kundankunga ortib bordi. Tennis maktabining a'zosi bo'lish uchun jiddiy sinovlardan o'tish, katta musobaqalar g'olibi bo'lish, jismoniy tayyorgarlikni puxta bajarish oson bo'lmadi.

Murabbiyim Inna Olegovna ko'magida mahoratimni oshirib borayapman. Maqsadim – yurtimizning birinchi raqamli tennischisi bo'lish. Buning uchun esa mendan sabr-toqat, kuchli iroda va intilish talab qilinishini yaxshi bilaman.



Katta
maydon sari
intilyapman.

MAYDONDAGI

ISHONCH

Rasul otasi Rustam aka, akasi Umarxon, opasi Marg'ubaga havas qilib, sportga mehr qo'ydi. Bu havas uni Respublika olimpiya xazinalari tennis maktabiga yetakladi. Imtihonlardan muvaffaqiyatli o'tgan yosh sportchi ustozlari ishonchini oqladi...

Biz Rasulni darsdan so'ng tennis maydonida, mashg'ulot



Rasul kompyuter
mashg'ulotlarini
ham unutmaydi.


Qo'sh sahifani Feruza SOYIBJON qizi,
Ma'mura YIGITALI qizi tayyorlashdi

paytida uchratdik. Uning serharakatligi, maydonni ziyraklik bilan kuzatishi, raqibiga hurmat bilan qarashi bizni yanada sevintirdi. Rasul o'tgan yili 13 yoshlilar o'rtasida Turkmanistonda, mazkur yilda 14 yoshlilar bahsida Malayziyada o'tkazilgan xalqaro musobaqalarda birinchi o'rinni qo'lga kiritdi. Katta maydonlardagi muvaffaqiyatlar uni yana g'alabalari sari ruhlantirdi. Endilikda murabbiy O'tkir aka Abdullayev, Farrux aka Abidovdan tennisning murakkab usullarini o'rganmoqda. Suhbat davomida angladikki, Rasul Ahmadaliyev sportning mashaqqatli, shuningdek, faxrli olamida yashash hissini dastlab Namangandagi ustozlari Oleg Xamiulin, Artur Suleymanovdan o'rgangan ekan. Darhaqiqat, sog'lom odamgina chinakam baxtli bo'ladi. Bor iqtidorini, imkoniyatlarini ishga solib, vaqtini behuda sarflamayotgan tengdoshingiz ertaga jahon maydonlarida yurt bayrog'ini baland ko'tarib hilpiratishiga aslo shubha qilmadik.

TUN

Horib, charchab xobgohiga yo'l oladi kun,
Qora pardasini asta tushiradi tun.
Samoda avjida yulduzlar raqsi,
Soy suvi o'padi oymoma aksin.
Muloyim taralar ona allasi,
Unga jo'rnavoridir chigirtka sasi.
Yon-atrof naqadar sokindir bu choq,
Tabiat tin olib yozmoqda charchoq.
Qulog'iga hiloldan ilingan baldoq,
Bo'yniga yulduzdan shoda ko'zmunchoq.
Orom farishtasi, orom bekasi,
Tabiatda hukmron tun malikasi.

Sharofiy Shodiyabegim **IBROHIM** qizi,
Jizzax viloyati, Forish tumanidagi
59-umumta'lim maktab o'quvchisi



YANA KUZ

Turnalar qaytar,
Yel qo'shiq aytar.
Yaproqlar oltin,
Saharlar sokin.
Yuz yuvar hilol,
Buloqlar zilol.
Chorbog'-chi, xomush,
Gullar faromush,
...Yana kuz keldi.

«Amiri» xushbo'yi,
«Oqnovot»ga to'yi.
Asal husayni,
G'arq pishgan ayni.
Ko'z suzar olma,
Armonda qolma.
Tandir to'la non,
Kutilar mehmon.
Kuzak-to'y fasli,
Fasllar asli,
...Yana kuz keldi.

Dehqon kayfi chog',
Xirmonlar tog'-tog'.
Tun-u kun mehnat,
Sarf bo'lgan albat.
Kuz qandin urar,
Qish kutib turar.
Kuz, bu to'y fasli,
Fasllar asli,
...Yana kuz keldi.
Mohichehra **KENJAYEVA**,
Surxondaryo viloyati,
Sho'rchi tumanidagi
20-umumta'lim maktabining
7-«A» sinf o'quvchisi

Asad **DILMUROD**

DO'STIM ERUR
KITOBIM

Yurtning erka qiziman,
Puxta bilim olaman.
Qalbi gulga to'lgan qiz,
Ham baxtiyor bolaman.

Vijdonimning oldida,
Aslo yolg'on demasman.
Ilmlar dunyosiga,
Sira befarq emasman.

Aql hamda odobim,
Ish beradi men uchun.
Do'stim erur kitobim,
Unga dil berdim bugun.

Umida **KARIMOVA**,
Sergeli tumanidagi
284-maktabning
7-«V» sinf o'quvchisi



DADAJON

Dilingiz dilga payvand,
Baxtiyormiz va xursand,
Bo'lmang-da doimo band,
Bizga vaqt ajrating.
Qayg'urasiz bizni deb,
Farzand - o'g'il-qizni deb,
Sizdan qolar izni deb,
Bizga vaqt ajrating.
Yeldek o'tar umr ham,
Hech kimdan emasmiz kam,
Biroz tin oling siz ham,
Bizga vaqt ajrating.
Nurjon **UBAYDULLAYEVA**



USTOZIM

Qalam tutgan qo'limga,
Ziyo sochgan dilimga,
Oshno etgan bilimga,
Aziz inson ustozim,
Chin mehribon ustozim.

O'rgatgan bu hayotni,
Vatanga muhabbatni,
Yomonlarga nafratni,
Aziz inson ustozim,
Chin mehribon ustozim.

Doim rost so'zla deydi,
Maqsadni ko'zla deydi,
Ilmni izla deydi,
Aziz inson ustozim,
Chin mehribon ustozim.

Gulmira **ISMOILOVA**,
Termiz shahridagi
13-maktabning
5-sinf o'quvchisi



Bolajonlar! Gazetamizning bir necha sonlarida «Bo'sag'a» orqali Asad Dilmurodning ijod olamiga kirib kelishi, o'z qalamiga ega bo'lish yo'lidagi sarguzashtlar bilan tanishdingiz. Qahramonimiz bu orada 26-apreldagi Toshkent zilzilasi ham shohid bo'ldi. Onaizorining ko'plab iltimoslari bois ona qishlog'iga qaytdi. Tuman gazetasi, keyinroq viloyatning «Zarafshon» gazetasida qalami charxlandi. Sur'at Oripovdek zukko ijodkor nazariga tushish qahramonimiz ijodini yangi uzanga solib yubordi. Ko'ngil kengliklarni qo'msab qoldi. Bu haqda ijodkorning o'zi shunday xotirlaydi.

BO'SAG'A

5. Nazm
ko'chasidan
nasr
xiyoboniga
o'tib ketdim



(Boshi o'tgan sonlarda)

Biron dargohga yo'l olsam, kimdir bu yerda sen qiladigan ish yo'q tarzida ko'kragimdan itaradigandek tuyulaverar edi. Hozirgi «Turkiston» gazetasida bir qoshlarini chimirgancha bir dasta she'rimni qo'limga tutqazgach, battar yurak oldirib qo'ydim. Lekin ahvol bu yo'sin davom etishi mumkin emasdi. Axiyri uzoq mulohaza yuritgach, navbatdagi yozgi sessiya paytida, nufuzi behad ko'tarilib ketgan «Guliston» tahririyati eshigidan mo'ralagani jur'at etdim.

Jurnal adabiyot va san'at bo'limini proza pahlavoni Shukur aka Xolmirzayev boshqarar, u kishidan biron narsa o'tkazish igna teshigidan tuya o'tkazish qadarli qiyin edi. O'sha kuni baxtinga ustoz kelmagan ekan, xodim bo'lmish Murod Xidirov she'rlarimni hijjalab o'qigach, mamnun qiyofada Mirtemir domlaga sim qoqdi.

Taxminan ikki soatdan keyin shinam xonai xosda qo'l bog'lab turar ekanman, ilhom parisini bir umrlik sodiq hamdamiga aylantirgan yirik san'atkor oldida tariqday kichrayib qolgandim, so'ng, ko'nglimdan bekor ovora bo'lib keldim, bir donayam mashqimni ma'qullamasa kerak, degan miskin fikr kechdi. Hazrat qirovlagan siyrak qoshlarini chimirgancha bafurja mutolaa qilgani sayin lag'cha-lag'cha cho'g' uzra qo'ngandek tipirchilar edim. Xayriyat, oxiri bir yoqimli jilmaygach, yelkamdan ulkan tog'ni ag'dargan kabi yengil nafas oldim. Qisqa jimlikdan so'ng ustoz kaftini asta qulog'i orqasiga bosib xo'rsindi: hay, bo'tam, shu jimiti jonim qasdiga ho'ppaygan chipqon bitganini ko'ring, necha kundand beri maddalab azob beradi, kesmasa bo'lmas ekan, bolalab ketarmish-ey savil, malol olmay o'n kunlardan keyin keling, oq yo'l naqdina!..

Mirtemir domla ko'nglida chuqur ildiz otgan sami-

miyat va andisha qon-u jonimga bahor quyoshi haroratini bag'ishladi, yuragim bir dunyo taassurotga to'lgan holda xayrlashdim. Haligi taklifga ko'ra aytilgan muddatda yana oldilariga kelishni ko'nglimga tugib qo'ydim.

Afsus, sessiya tugagan hamono, yer yuzi sayqali bo'lmish qadim Samarqand sari oshig'ich jo'nashga majbur bo'ldim, ustoz nazariga tushgan haligi she'rlar taxlamlar orasida qolib ketdi.

Taqdir qariyb yetti yildan keyin Mirtemir domla bilan ikkinchi marta uchrashtirdi, aniqliqrog'i, navbatdagi diydor ko'rishuv «Zarafshon» yetmish yoshga to'lishi munosabati bilan ro'y berdi. Bir vaqtlar ustoz mazkur gazeta bilan yaqindan ijodiy aloqa o'rnatgan ekan, shunga ko'ra xotiralarini yozib olishim lozim edi.

Eshikda qo'l bog'laganim hamono faqirni tanigan ulug' shoir boshi ko'klarga yetib sevindi, daromad qilib o'tirmay, xayrixohlik bilan ijodim ahvoliga qiziqdi. Shunda nogoh qitqapatim qilpillab, botinib-botinmay bidirladim: «Ustoz, chakki emas, faqat qulog'ingiz orqasiga bitgan chipqon bahona nazm ko'chasidan nasr xiyoboniga o'tib ketdim!»

Ustoz eshilib kulganini qo'ya turay, adashmasam, kamina es tanigandan beri o'ylab-o'ylamay topgan eng zo'r hazilim shu bo'lsa kerak, ammo tag-zamini zil-u zambil edi, xo'sh, nechun?

Keling, javobga shoshilmay, negaki, endi bu yog'i boshqa tarix, boshqa saboq, vaqti-soati bilan qog'ozga tushirarman, o'shanda yana yuzlashamiz, aziz bolajonlar.

(TAMOM)



KATTALARNI YIG'LATGAN DOSTON

*Tahririyatimizning navbatdagi mehmoni
O'zbekiston Milliy Universiteti professori,
filologiya fanlari doktori Qozoqboy
Yo'ldoshev. Ustoz bilan «Bola va adabiyot»
mavzusida suhbatlashdik.*



To'lqin HAYIT:

– Har bir insonning bolalik xotiralari qadrdon maktabiga bog'liq bo'ladi. Siz bu xotiralarni qanday eslaysiz?

– Bugun o'zbek xalqi bolasini eng baland qadriyat deb hisoblaydigan bosqichga keldi. Hozir ota-onalar farzandlarini maktabga yetaklab olib boradilar. Bularni ko'rib, 1956-yil – 1-sinfga borgan vaqtlarim yodimga tushadi. Bizning Boyovut qishlog'imizda o'sha vaqtlarda hech bir bolaning otanasini maktabga yetaklab olib bormagan. Ayrim sinfdoshlarimiz maktabga kalishda, ayrimlari oyoqyalang ham kelganlarini eslayman. Bugun eng uzoq qishloqda, hatto tog' qishlog'ida ham buni tasavvur qilib bo'lmaydi.

Yusuf ABDULLAYEV, ma'naviyat bo'limi muharriri:

– Bugungi kunda bolalar adabiyotiga e'tibor qay darajada deb hisoblaysiz?

– Eng baland va nozik tuyg'ular qalbga bolalikda singadi. Bolaligida bu tuyg'ularni o'ziga singdirmagan odam 40-yoshida ham tanballigicha qolib ketaveradi. G'urur, or-nomus, iffat, sha'n, mehr yoki nafrat, muhabbat – bularning barini bolalikdan shakllantirish kerak. Buni pand-nasihat yoki o'qituvchining o'giti orqali emas, balki adabiyotda tengdoshlarini ko'rish orqali, shulardan biriga taqlid qilib, biriga o'xshamaslikka intilish orqali amalga oshadi.

Adabiyotning besh-oltita funksiyasi bor, shulardan birini akseologiya (baholash) deyiladi. Ya'ni, baholash funksiyasi. Odamzod birovning xatti-harakatiga baho bermoqlik uchun uning xatti-harakati bergan natijani kuzatishi kerak. Buni qayerda kuzatish mumkin? Yosh bolaning hayotiy tajribasida hali bunday imkoniyat yo'q. Buni faqatgina adabiyot bera oladi. Masalan, shum bolaning qiliqlari orqali bola o'zini tarbiyalaydi. O'zini shaxs sifatida shakllantiradi. Omonning xatti-harakatlarini ma'qullagan bola o'zi bilmagan holda Omonga o'xshab boraveradi. Shum bolaning xatti-harakatlarini ma'qullagan va shuni o'ziga moyil deb bilgan bolada ana shunga o'xshash shaxsiy sifatlar shakllanib boraveradi.

Gulyuz ORIFJONOVA, maktab hayoti bo'lim muharriri:

– Bolalar uchun yozilgan qaysi asarlar dunyo miqyosida eng yaxshi asar sifatida tan olingan?

– Xalq og'zaki ijodida qadimdan bolalar adabiyoti mavjud bo'lgan. Aytishmalar, sanamalar, topishmoqlar, ertag-u masallar – bularning barchasi bolalar uchun o'ylab topilgan. Ehtimol, bularning katta bir qismi bolalar tomonidan yaratilgan. Bu chinakam ijod. Bolalardagi dastlabki ijodga intilish o'yinlarga ehtiyoj tufayli paydo bo'lgan. Biz bolalar o'ynayapti deb o'ylaymiz. Aslida ular o'ynamaydi, bolalar yashaydi! O'sha o'yinning ichida yashaydi. Bola sizni yoqtirsagina, o'yiniga qo'shadi. Bolalarga e'tibor erkin shakllangan Fransiya va Germaniyada ham bolalar adabiyoti XVIII asrning ikkinchi yarmida tug'ilgan. Jan Jak Russoning «Emil va

ma'rifatli bo'lish haqida yozilgan asarlar sirasiga kiradi. XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida bizda dastlabki bolalar adiblari – jaddidlar paydo bo'ldilar. Birinchi bolalar adiblari: Avloniy, Hamza, Munavvar Qorilar edi. Ular bolalar adabiyotini alohida estetik hodisaga aylantirdilar.

«Yulduzlar mangu yonadi» qissasini olaylik. Bunday qarasangiz, qissa bolalarga atalgan asar emas. Lekin bolalar ko'p o'qishi kerak bo'lgan va ularda g'urumi shakllantiradigan asar. Asardagi Shukurvoyning ori uchun kurashga chiqaman, degan bolalar o'quvchining or-nomusli bo'lib tarbiyalanishida katta rol o'ynaydi.



tarbiya haqida» kitobi yozilgandan keyin yozuvchilar bolalar uchun alohida adabiyot yaratishimiz kerak ekan-da, degan fikrga kelishgan. Deyarli bir asr davomida bolalarga faqat pand-nasihat beruvchi asarlar yaratildi. Faqat XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib asarning nasihati, ma'rifiyligi emas, badiiyligi birinchi bo'lishi kerak, degan to'xtamga kelindi. Shundan so'ng, dunyo adabiyotida bolalar adabiyoti paydo bo'ldi. Biz bolalar adabiyoti deb o'qiydigan «Robinzon Kruzo», «Gulliverning sayohati» kabi romanlar aslida bolalar uchun yozilmagan. Lekin bu asarlar bolalarning tabiatiga mos bo'lgani uchun ularning sevimli adabiyotiga aylangan.

Bizda ham bolalar haqida va ular uchun yozilgan asarlar hamisha bo'lgan. «Qissasi Rabg'uzi»da olam va odam haqidagi qarashlarga oid juda ko'p rivoyatlar aynan bolalarda to'g'ri dunyoqarashni shakllantirish uchun yozilgan. Hazrat Navoiyning «Mahbul qulub» asari ham tavozei, ilmi,

Aynan bugun – globallashuv davrida bola keng fikrlaydigan bo'lib ulg'ayishi kerak. Badiiy asarlar bolalarning intellektual ehtiyojlarini hisobga olib, ularni o'ylashga chorlaydigan tarzda yozilishi kerak, deb o'ylayman. Bolalarni yengil narsalarni iste'mol qilishga o'rgatib qo'yish kerak emas. Ular asardagi obrazning tagidagi ma'nolarni topishga undalsa, foydadan xoli bo'lmaydi.

AXTAMQULI, adabiyot va san'at bo'limi muharriri:

– Qaysi asarlarni bolani yuksak ma'naviyatli qilib tarbiyalay oluvchi asarlar sirasiga qo'sha olasiz?

– Bolalik – bir umrga yetadigan ma'naviy xazina to'plash davri. Adabiyotga qo'yiladigan talablar darajasini ko'tarishimiz kerak. Bolalar adabiyoti bu shunchaki bolalar haqidagi ertaklar emas. O'zbekiston xalq shoiri Anvar Obidjon, Tursunboy Adashboyev, Kavsar Turdiyeva kabi bolajonlar uchun yozadigan adiblardan

tashqari, kattalar uchun yozadigan yozuvchilarning ham ayrim asarlari bolalarbop. Tog'ay Murod asarlarida jonzotlarga munosabat boshqacha. Jonivorlar mustaqil bir qadriyat ekanligi Shukur Xolmirzayev, Tog'ay Murod asarlarida yuksak darajaga olib chiqildi. Chingiz Aytmatovning «Oq kema» asarida bola nazari orqali o'simliklarga juda zo'r ta'rif berilgan. Bu asarlarni o'qigan bola tabiat va hayvonot olamiga mehr qo'yib ulg'ayadi.

Feruza ADILOVA, mas'ul kotib:

– Odamdagi eng nozik, baland tuyg'ular bolalikda qaror topadi, dedingiz. O'zingizda shu baland tuyg'ularning shakllanishiga sabab bo'lgan voqeani eslay olasizmi?

– Menda so'zga ehtiromni, so'zdan hayratlanishni «Alpomish» dostoni shakllantirgan. 2-sinfda o'qib yurganimda, archa bayramida ifodali she'r o'qiganim uchun bir kitob sovg'a qilishdi. Bu kitobdagi qahramon xuddi menga o'xshagan bola ekan. Uni o'qib, qalbmida kitobga mehr paydo bo'lgan. 2-sinfni tugatayotganimda, «Alpomish» dostonini kattalarga o'qib berganman. Men o'qiyman, bir uy odam eshitib yig'lashadi. Doston katta bo'lgani uchun bir qismini o'qib bo'lganimdan so'ng, kitobni bo'yim yetmaydigan baland joyga qo'yib qo'yishardi. Men bo'lsam ilhaq bo'lib, tezroq dostonni o'qishni xohlardim. Qo'ni-qo'shnilarim ham ataylab «Alpomish»ni eshitishga oshiqib kelishardi. Bu kitobni shunchalar ko'p o'qiganimdan butun dostonni yod bilardim. Qishloqdoshlarimnikiga mehmon kelib qolsa, meni «Alpomish»ni o'qib berishim uchun uylariga olib ketishardi. Shu dostonni o'qib, ilk marotaba so'z qudratidan qattiq ta'sirlanganman.

Ma'mura MADRAHIMOVA, sport bo'limi muharriri:

– Adabiyotga bo'lgan qiziqishingizga qaysi ustozingiz sabab bo'lganlar?

– O'zingizga ma'lum, o'quvchi maktabda fandan ko'ra, o'qituvchiga mehr qo'yadi. Habibullo O'rolov degan matematika o'qituvchimiz algebrani qo'shiq qilib o'tardilar. So'zga bo'lgan e'tiborni matematika fani muallimimdan o'rganganman desam, mubolag'a bo'lmaydi. Shu domlarga havas qilib, matematik bo'lmoqchi edim. Lekin 10-sinfda o'qib yurgan vaqtlarim, Karim aka degan ustozimiz jamiyat fanini 11-sinflarga o'tib berishimni so'radilar. Bu voqea qishlog'imizda ancha shov-shuv bo'lgandi. Shunda qalbmida o'qituvchilik kasbiga mehr uyg'ongan bo'lsa, ajabmas. So'z shunday sehrli qudratki, o'zimga sezdimagan holda meni o'ziga bog'lab qo'ydi. Filolog bo'ldim.

Savollar javoblarga ulanib, suhbatimiz qizigandan-qizib ketganidan, vaqt qanday o'tib ketganini ham sezmay qolibmiz. Qozoqboy akaga maroqli suhbatlari uchun minnatdorchilik bildirib, ular bilan xayrlashdik.

*Gulyuz ORIFJONOVA
yozib oldi*


O'ZINGNI SINAB KO'R!



1 Yaxshi o'rtoq, do'st topmoq uchun nimalarga va uning qaysi jihatlariga e'tibor bermoq kerak? Jiddiy o'ylab ko'ring va topgan javobingizni bizga yozib yuboring!
Faks: 8-371 244-38-10.
Internet orqali jo'natsangiz ham bo'ladi.



2 Sakkizta tuyaga sakkizta gilam, oltmishta kitob ortishdi.
Yo'lda 29 ta gilamni sotishdi va uning puliga yana 49 ta kitob xarid qildilar. Tuyalarda jami qancha yuk manzilgacha yetib keldi? Og'zaki hisoblay olasizmi?



3 Besh barmoqda beshita oq qand. To'rt barmoq ham, uch barmoq ham bo'lishi mumkin. Bu nima? Javob topingchi!

4 Bir dono o'g'liga bir taxlam qog'oz va qalam jo'natib yubordi. «Shundan foydalanib, o'zingni boq!» degan mazmunda xat ham bor edi unda. O'g'il qaysi kasb bilan shug'ullangan deb o'ylaysiz?



Osimxon VOSIXONOV chizgan rasmlar

Yaqinda poytaxtimizdagi 328-maktabda «Til va adabiyot – ma'naviyat ko'zgusi» nomli festival bo'lib o'tdi. Til oyligi yakuniga bag'ishlangan mazkur tadbirida biz ham qatnashdik.

BIR FESTIVAL BO'LDI...

Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Dilorom Shofayziyeva boshchiligida tayyorlangan mazkur tadbirni kichikintoylar tilimizga oid hikmatli so'zlar, Vatan haqidagi she'rlar, quvnoq kuy va qo'shiqlar bilan boshlab berishdi. 8-«B» sinf o'quvchilari Mirafzal Shofayziyev va Shorustam Ismatov Abdulla Oripovning «Sohibqiron»



dramasidan parcha namoyish etishganda, o'quvchilar orasida jonlanish paydo bo'lgan bo'lsa, 9-«B» sinf o'quvchisi Iroda Qosimova Zebunniso monologini o'qiganda, zalga sukunat cho'mdi.

Maktabimiz shoiralari, deya s a h n a g a taklif qilingan yosh qalamkashlarni o'quvchilar olqishlar bilan qarshi olishdi. Mazkur bilim daroghining sobiq bitiruvchisi

Oybek Mirzayev ijrosidagi ona, Vatan haqidagi qo'shiqlar bayramga yanada fayz kiritdi.

Tadbir yakunida zimmamizga juda mas'uliyatli, til oyligida faol ishtirok etgan o'quvchilarni taqdirlash vazifasi yuklatildi.

«Eng mazmunli insho», «Eng yaxshi sahna asari», «Eng faol sinf», «Eng yaxshi devoriy gazeta», «Iqtidorli qalamkashlar» nominatsiyalari bo'yicha g'olib deb topilgan o'quvchilarni «Faxriy yorliq»lar hamda «Istiqlol» nashriyoti tomonidan taqdim etilgan kitoblar bilan taqdirladik.

Maktab direktori Feruza Gaziturova bunday ajoyib tadbirlarning ahamiyati haqida gapirib, uni tashkillashtirgan o'quvchilarga hamda ularning ustozlariga o'z minnatdorchiligini bildirdi.



Aziza AKBAR qizi
Suratlar muallifi: YU.ABDULLAYEV

DILIMDA HALOVAT

Qaldirg'ochlar charx urib,
Parvoz qilar samoda.
Nafis gullar ifori,
Toraladi havoda.
Chumchuqlarning chug'uri,
Tutib ketdi har yonni.
Bolalarning kulgusi,
Jaranglatdi osmonni.
Shuning uchun sevaman,
Bahoriy tarovatni.
His qilaman har onda,
Dilimda halovatni.

Gulnora
ABDUNABRIYEVA
5-«B» sinf
o'quvchisi

MUNISA

Jiyanginam Munisa,
Timin bilmaydi sira.
Goh chopqillab yuradi,
Goh arazlab turadi.
Gohida u modelyer,
Gohida-chi, shifokor.
Gohida u oshpazdir,
Gohi usta binokor.
Jiyanginam Munisa,
Chiqqin bilim taxtiga.
O'ynab, kulib o'saver,
Yaqinlaring baxtiga.

Irodaxon
JALILOVA
5-«B» sinf
o'quvchisi

BAHOR KELISHI BILAN

Qorlar eriy boshlaydi,
Tog'lar ko'zin yoshlaydi,
Oq libosin tashlaydi,
Bahor kelishi bilan.
Doshqozonda sumalak,
Yelvizakdan jon halak,
Parvoz qilmoqda varrak,
Bahor kelishi bilan.
Atrof go'zal, yo'q qiyos,
Nur sochar saxiy quyosh,
Qish ham horib egar bosh,
Bahor kelishi bilan.

Zulfiya
MUHAMMAD-
UMAROVA
5-«B» sinf
o'quvchisi



BOSH MUHARRIR:
To'lqin HAYITOV

Dizaynerlar:
Fazliddin
SHOYODGOROV,
Olovuddin
ORIPOV

Navbatchilar:
Ma'mura MADRAHIMOVA,
Yusuf ABDULLAYEV

Gazeta
O'zbekiston
Matbuot va
axborot
agentligida
0208-raqam
bilan 2007-yil
2-fevralda
ro'yxatdan
o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Avaz MARAHIMOV,
Svetlana INOMOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Odina JAMOLDINOVA,
Jabbor RAZZOQOV,
Murtazo SULTONOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruza ADILOVA
(mas'ul kotib),
Dilmurod RAHMATILAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA

Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@bk.ru
www.tongyulduzi.uz
Tel: 244-27-25, 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»
NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,
mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni
chiqadi. Shakli A-3,
2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi - 32426
Buyurtma N: J 406

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga
qarashli bo'lgan Xalqaro xayriya jamg'armasi.